



RUHIY RIVOJLANISHI SUSTLASHGAN BOLALAR.

*Andijon davlat pedagogika Instituti Maktabgacha ta'lim va
Maxsus pedagogika fakulteti o'qituvchisi Najimova Muxabbatxon*

*Maktabgacha ta'lim va Maxsus pedagogika fakulteti
Logopediya 1-bosqich talabasi Xabibullaeva Tursunoy.*

Annotatsiya: Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalar soni ortib borishi jamiyat uchun dolzarb muammo hisoblanadi. Bu holat ularning ta'lim olishi, ijtimoiy moslashuvi va kelajakdagi hayot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mazkur maqolada ruhiy rivojlanish sustlashuvining asosiy sabablari, diagnostika usullari va erta aralashuvning ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu bolalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha pedagogik va psixologik yondashuvlar ko'rib chiqiladi. Maqola mutaxassislar va ota-onalar uchun amaliy tavsiyalar berishni maqsad qilgan.

Kalit so'zlar: Ruhiiy rivojlanish sustlashuvi, Maxsus pedagogika, Erta aralashuv, Bolalar psixologiyasi, Diagnostika, Inklyuziv ta'lim, Rivojlanish buzilishlari, Korreksion pedagogika

Abstract: The increasing number of children with delayed mental development poses a significant challenge for society. This condition negatively impacts their educational attainment, social adaptation, and overall quality of life. This article analyzes the main causes, diagnostic methods, and the importance of early intervention for mental developmental delays. Furthermore, pedagogical and psychological approaches to support these children are discussed. The paper aims to provide practical recommendations for specialists and parents.



Keywords: Delayed Mental Development, Special Pedagogy, Early Intervention, Child Psychology, Diagnosis, Inclusive Education, Developmental Disorders, Correctional Pedagogy

Аннотация:Растущее число детей с задержкой психического развития представляет собой актуальную проблему для общества. Это состояние негативно влияет на их образовательные достижения, социальную адаптацию и качество жизни в целом. В данной статье анализируются основные причины, методы диагностики и значение раннего вмешательства при задержке психического развития. Также рассматриваются педагогические и психологические подходы к поддержке таких детей. Цель статьи — предоставить практические рекомендации для специалистов и родителей.

Ключевые слова: Задержка Психического Развития, Специальная Педагогика, Раннее Вмешательство, Детская Психология, Диагностика, Инклюзивное Образование, Нарушения Развития, Коррекционная Педагогика.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar (RRSB) muammosi zamonaviy pedagogika, psixologiya va tibbiyot sohalarining dolzarb tadqiqot ob'ektlaridan biri bo'lib, ularning rivojlanishidagi o'ziga xosliklar va ta'lim ehtiyojlari jamiyatning diqqat markazida turibdi. Ushbu holat bolaning yoshiga nisbatan aqliy rivojlanish darajasining vaqtinchalik orqada qolishi bilan tavsiflanadi . RRSB ning kelib chiqish sabablari genetik, tibbiy, ekologik va psixologik omillarni o'z ichiga olgan murakkab etiologiyaga ega bo'lib, markaziy asab tizimining turli kasalliklari, jumladan, tug'ma nevrologik buzilishlar va perinatal asoratlar asosiy sabablaridan hisoblanadi . Bu holat bolaning kognitiv funksiyalariga, jumladan, mantiqiy fikrlash, idrok etish, ixtiyoriy diqqat, nutq, xotira va hissiy-irodaviy sohalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi .

RRSB ning o'ziga xos psixologik-pedagogik xususiyatlari ularning ta'lim jarayonida maxsus yondashuvlarni talab qilishini ko'rsatadi . Ushbu bolalarda nutq, fikrlash, idrok, emotsiya va xotira kabi psixik funksiyalar kechroq va o'ziga xos



tarzda rivojlanadi, bu esa ularning o'quv dasturlarini o'zlashtirishda qiyinchiliklarga olib keladi . Masalan, o'qish ko'nikmalarining rivojlanishida fonologik xotira, vizual-motor koordinatsiya va diqqat yetishmovchiligi kuzatiladi . Shuningdek, ularda o'z-o'zini hurmat qilish, xulq-atvor va ijtimoiy moslashuvda ham muammolar yuzaga kelishi mumkin .

Ruhiy rivojlanishida sezilarli darajada orqada qolgan bolalar bular maktabni bitirguniga qadar maxsus sharoitda o'qitilishi kerak. Bunday bolalar maktab dasturini sog'lom tengdoshlari qatori o'zlashtira olmaydi. Ruhiiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni ommaviy maktabda hamma qatori o'qitish talim jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi, ya'ni o'rtacha o'quvchining saviyasini orqaga tortadi, yaxshi va alo o'zlashtiruvchi o'quvchilarni yetarli darajada o' stirishga to'sqinlik qiladi.

Olimlardan K.S.Lebedinskaya, G.P.Berto'n, E.M.Dunayeva va boshqalar ruhan sust rivojlanganlikni klinik-psixologik jihatdan quyidagi xillarga bo'lishni tavsiya etadilar:

- 1) konstitutsional; 2) somatogen; 3) psixogen; 4) serebral shakli.

Ruhiy rivojlanish sustlashganlikning konstitutsional shaklini xarakterlovchi belgilarga quyidagilar kiradi: bolaning gavda tuzilishi sogiom tengdoshlarinikiga nisbatan. 1-2 yosh kichik ko'rinadi. U o'zini bog'cha yoshidagilarga osxshab tutadi va taiim olish uchun hali "yetilmagan" bo'ladi. Bunday bola o'quv faoliyatiga yaxshi kirishib ketmaydi, chunki unda o'qishga qiziqish yo'q, ish qobiliyati past. Mas'uliyatsizlik, motivlarning sustligi, ruhiy jarayonlardan analiz, sintez qobiliyatlarining yaxshi rivojlanmaganligi tufayli o'qish va yozishni, matematikani katta qiyinchiliklar bilan o'zlashtiradi. Dars vaqtida tez charchab qolish hollari, bosh og'rib turishi konstitutsion shakldagi bunday bolada ish qobiliyati, faollik yanada pasayib ketishiga sabab boiadi.



Rivojlanishdagi bu kamchilikka bola onasining homiladorligi davrida qalqonsimon bezlari faoliyatining buzilganligi, yurak-tomir kasalliklari sabab bo'lishi mumkin.

Ilk yoshda har xil surunkali kasalliklar bilan tez-tez kasallanib turish natijasida bola yaxshi o'sib-unmay qolishi mumkin, bu esa o'z navbatida ruhiy jihatdan rivojlanishida orqada qolishga, kechikishga olib keladi, sust rivojlanganlikning somatik shakli deb shunga aytiladi. Bolada surunkali infeksiyalar, allergik holat tug'ma porok va shu kabi kasalliklar ayniqsa tez uchrab turadi. Ruhiy rivojlanishning somatogen sabablarga aloqador sustligi bolada asteniya holatini vujudga keltiradi. Ayrim bolalarda somatogen infantilizm kuzatiladi, ya'ni bola o'sib -unmagan, go'dak taxlit bo'lib qolaveradi. Bunda bola psixikasida nevrozga o'xshash holatlardan o'z kuchiga ishonmaslik, qo'rqqoqlik, injiqlik, erkalik, qiziqishning pastligi va boshqalar kuzatiladi.

Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida bola erta yoshligidan noqulay, noto'g'ri sharoitda tarbiyalanadi va shu tarbiyaning salbiy tomonlari ruhan rivojlanishiga ta'sir o'tkazgan boiadi. Shu xildagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini 3 guruhga bo'lish mumkin:

Bola tarbiyasi bilan mutlaqo shug'ullanmaslik, uni butunlay o'z holiga tashlab qoyish, bunda bolalarda burch va mas'uliyat hissi shakllanmaydi. Aql-idrokning rivojlanishi, qiziqishlari, bilish faoliyati, his-tuyg'u va iroda yetishmasligi ustiga o'quv fanlarini

o'zlashtirish uchun zarur bilim va taassurotlarning yetishmasligi ham qo'shiladi.

Ruhan sust rivojlanganlikning psixogen shaklida aql-idrok bilish faoliyatiga aloqador kamchiliklarga aksari noto'g'ri tarbiya natijasida paydo boigan xislatlar ham qo'shilib pirovard natijasida shaxsning rivojlanishi izdan chiqadi, unda patologik xislatlar yuzaga keladi. Ana shunday bolalami pedagogik qarovsiz



bolalardan ajrata olish lozim. Pedagogik qarovsiz bolalarning psixikasi normal bo'lib, ular noto'g'ri tarbiyalanganligi natijasida ulgurmovchi o'quvchilar qatoriga o'tib qoladilar.

Ruhiy sust rivojlanishning serebral shakli miya shikastlari, meningit, meningoensefalit, gidrotsefaliya va boshqa kasalliklar natijasi bo'lib hisoblanadi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni o'qishi pasayib ketadi, biroq bu holat o'z vaqtida va to'g'ri aniqlansa, bolalarga tegishli yordam tashkil etilsa, ular ommaviy maktab dasturini o'zlashtira oladilar. Ruhan rivojlanish kamchiliklarining ba'zi bir shakllarida bolalarni vaqti-vaqti bilan maxsus psixonevrologik sanatoriylarda davolash foydalidir. Sanatoriyda bola kollektiv ishiga asta-sekinlik bilan jalb etiladi. Unda charchash alomati paydo bo'lganda, u o'quv mashg'ulotlaridan vaqtincha ozod etiladi yoki unga soddaroq boshqa vazifalar beriladi. Sanatoriyda davolanib kelgandan so'ng bola o'qishni o'z maktabida davom ettiraveradi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar uchun ta'im umumta'im bog'cha yoki maktab dasturi va darsliklari asosida olib boriladi, himoyalaydigan davolovchi maxsus tartib tashkil etiladi. Talim tarbiyaviy ishlar bolalarning fikrlash qobiliyati, diqqati, ish qobiliyati, xotirasi, nutqi va tafakkuridagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, bunday bolaga bilim berishda o'qituvchi uning o'ziga xos individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda maxsus sharoitda, maxsus usullar bilan ishlaydi, tegishli yordam tashkil etadi. Sog'iqni saqlash vazirligi qoshidagi bolalar va o'smirlar gigienasi instituti xodimlari, jumladan N.P.Vayzman va boshqa olimlarning o'tkazgan ilmiy tekshirishlari shuni ko'rsatadiki, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar o'zlashtirish jihatidan olganda sog'iom va yengil darajadagi aqli zaif bolalar o'rtasida oraliq o'rinda turadi. Bu olimlar tekshirish vaqtida yengil darajadagi aqli zaif va ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarga bir xildagi topshiriqlarni berib ko'radilar, shunda normal sog'iom bolalar berilgan vazifani to'g'ri



tushunib, uni kerakli tartibda bajargan boisalar, yengil darajadagi aqli zaif bolalar vazifani tushunmay, bajara olmaydilar, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar esa xuddi shunday vazifani, bajara oladilar.

L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, A.V.Zaporojes, G.S.Kostyuk, A.A.Lyublinskaya va boshqa olimlar tomonidan ishlab chiqilgan taiimotga binoan, inson tafakkurining uch xil turi: ko'rgazma - harakat, ko'rgazma - obraz, so'z-mantiq shakllari mavjud. Katta yoshdagi normal kishilarda tafakkurning bu turlari yetarli darajada rivojlangan bo'lib, bir-birlari bilan dialektik birlikni tashkil qiladi. Tafakkur turlari, mazmuniga oid barcha yoshiarga tegishli umumiy materiallar T.V.Rozanova tomonidan batafsil berilgan (1978 y.). Nuqsonli bolalar tafakkur xususiyatlarini o'zlashtirmovchi o'quvchilarda tekshirgan N.A.Menchinskaya juda qimmatli materiallar bayon qiladi. A.A.Simbalyuk (1974 y.) material mhiy rivojlanishi sustlashgan bolalardagi bilish aktivligi haqida, Z.I.Kalmikova (1975 y.) esa, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarning muammoli mazmunli masalalami yechishdagi qiyinchiliklari to'g'risida, T.D.Puskayeva (1980 y.) bu bolalar tafakkurida bo'shliq, inertlilik holatlarining ko'zga tashlanishi haqida ilmiy-eksperimental materiallar beradi.

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar tafakkurning o'ziga xos bo'lgan va uni aqli zaiflardan oson ajratishga imkon beradigan xususiyatlari dan biri, so'z-mantiq tafakkur bilan ko'rgazma-obrazli tafakkur turlarining o'zaro munosabati va rivojlanish darajalaridir (G'.B.Shoumarov).

Ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarning so'z-mantiq tafakkuri yetarli rivojlanmagan bo'lib, ba'zi holatlarda ulami yengil darajadagi aqli zaiflardan farqlay olmaslik mumkin. Ammo, ularning ko'rgazma-harakat va ko'rgazma-obrazli tafakkur turlari aqli zaiflardan keskin farq qilib, normal tengdoshlariga yaqinlashib boradi. Bu esa ularning bilish faolyatlarida katta rivojlanish imkoniyatlari mavjudligi va ularning bir qismi ma'lum ta'lim-yillaridan keyin, maxsus ta'lim-



tarbiya va davolash ishlari natijasida o'z normal tengdoshlariga yetib olishi mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar (RRSB) muammosi ko'p qirrali bo'lib, uning samarali yechimi kompleks yondashuvni talab etadi. Ushbu maqolada RRSB ning ta'rifi, etiologiyasi, diagnostikasi va korreksion-pedagogik yordam ko'rsatish usullari atroflicha tahlil qilindi. Erta aniqlash, individual ta'lim rejalari, maxsus pedagogik strategiyalar va inklyuziv ta'lim prinsiplari ushbu bolalarning rivojlanishi va jamiyatga integratsiyasi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning hamkorligi, mutaxassislarining malakasini oshirish va qonunchilik bazasini takomillashtirish orqali RRSB ga ega bolalarning to'laqonli hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish mumkin. Ularning aksariyat 7 yoshda ham maktabga bormasdan bog'chada qolishni xohlaydi. O'qishga bo'lgan qiziqishlarga nisbatan, o'yinga bo'lgan qiziqishlari ustunlik qiladi. O'yinga bo'lgan qiziqishining ustunlik qilganligi va o'qishda doimo, muntazam muvaffaqiyatsizlikka uchrab turishi natijasida bu bolalarda o'qishga nisbatan salbiy munosabat shakllana boradi. O'z-o'ziga ishonmaslik hislari shakllanadi. O'zlarining qobiliyatlarini baholashda haddan tashqari past baholash hollari kuzatiladi. Bu esa, ular shaxsining shakllanib yetishmasligi, hissiyot - iroda faoliyatlarida o'quv faoliyati uchun zarur bo'lgan bilish ehtiyojlarining shakllanmaganligida o'z ifodasini topadi. Aksariyat hollarda, ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilarda intellektual faollik, qiziqishlar yetarli bo'lmaydi. ruhiy rivojlanishi sustlashgan o'quvchilar faoliyati o'rganilganda; ularning o'z faoliyatlarini yetarli rejalashtira olmasligi, xatti- harakatlarning normal bolalarga nisbatan qo'zg'aluvchanligi, o'z-o'zini nazorat qilish saviyasining pastligi, o'z imkoniyatlarini yetarli baholay olmasligi va faoliyatlarini maqsad sari yo'naltirishning yetarli emasligi ma'lum bo'ldi. Kelajakda profilaktika choralarini



kuchaytirish va integratsiya jarayonlarini yanada chuqurlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] To'rayeva, M. X. (2022). Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarni korreksion-pedagogik qo'llab-quvvatlash. Toshkent: Fan nashriyoti.

[2] G'oziyev, N. M., & Xoliqova, Z. N. (2021). Maxsus pedagogika: Darslik. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.

[3] Nishonova, S. N. (2023). Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda kognitiv jarayonlarni rivojlantirishning psixologik asoslari. *Pedagogika va psixologiya*, 8(3), 125-132.

[4] Qodirova, D. A. (2022). RRSB ning erta diagnostikasi va korreksion-pedagogik yordam ko'rsatishning dolzarb masalalari. *Maxsus ta'lim jurnali*, 5(2), 45-52.

[5] Abdullayeva, M. A. (2021). Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalarda nutq buzilishlarini korreksiya qilish usullari. *Inklyuziv ta'lim: Muammolar va yechimlar* (pp. 78-85). Toshkent: TDPU nashriyoti.

[6] Mirzayeva, G. A. (2020). RRSB ning ijtimoiy moslashuvida oilaning o'rni. *O'zbekiston Milliy Universiteti xabarlari. Pedagogika va psixologiya seriyasi*, 1(4), 90-97.

[7] Yusupova, Z. A. (2023). Bolalar defektologiyasi asoslari. Samarqand: SamDU nashriyoti.